

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИЛЛИЙ ГВАРДИЯСИ  
ХАРБИЙ-ТЕХНИК ИНСТИТУТИ



Гуманитар ва ижтимоий фанлар кафедраси

**“ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИ  
ШАКЛАНТИРИШДА СИЁСИЙ  
ПАРТИЯЛАРНИНГ РОЛИ”**

**мавзусидаги республика илмий-амалий  
конференцияси материаллари**

2020 йил 26 февраль



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МИЛЛИЙ ГВАРДИЯСИ  
ҲАРБИЙ-ТЕХНИК ИНСТИТУТИ**



**Гуманитар ва ижтимоий фанлар кафедраси**

**“ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИ  
ШАКЛЛАНТИРИШДА СИЁСИЙ  
ПАРТИЯЛАРНИНГ РОЛИ”**

**мавзусидаги республика илмий-амалий  
конференцияси материаллари**

**2020 йил 26 февраль**

**Тошкент – 2020**

Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантиришда сиёсий партияларнинг роли //Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами – Т.: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти, 2020 – 236 б.

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти Кенгаши томонидан нашрга тавсия этилган (2020 йил 26 февралдаги 7-сонли баённома).

**Маъсул муҳаррир:** **К.Х.Усмонов** – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

**Таҳрир ҳайъати:** **Ф.А.Мусаев** – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти профессори, ф.ф.д.

**Н.С.Расурова** – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти доценти, т.ф.д.

**Такризчилар:** **С.Абдухаликов** – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ҳарбий-техник институти профессори, ф.ф.д.  
**Н.Т.Полвонов** – Ўзбекистон Миллий университети доценти, т.ф.н

Ушбу конференция тўпламида Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантиришда сиёсий партияларнинг ўрни ва аҳамияти, уларнинг шаклланиш жараёнлари ва такомиллашуви, сиёсий партияларнинг қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимият тизимидағи ўрни, республикамиз кўппартиявийлик тизимидағи муаммоларни аниқлаш, ёшлар, хусусан курсант ва тингловчилар орасида сайлов ва сиёсий маданиятни янада юксалтириш борасида таклиф ва тавсиялар камраб олинган мақолалар акс этган.

# **MILLATLARARO TOTUVLIK – TINCH VA TOTUV HAYOTIMIZ POYDEVORI**

**L.M.Xoliqov**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU magistranti*

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan<sup>15</sup>.

Millatlararo munosabatlar sohasidagi muammolarning global tus olayotganini namoyon qilish bilan birga, ularni jiddiy tadqiq etish hamda hal etishga ijtimoiy-gumanitar soha olimlari va siyosatchilar diqqate'tiborini qaratish g'oyat muhim ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

Bu o'rinda siyosiy va madaniy-ma'naviy makonning demokratiyalashuvi hamda globallashuvi sharoitida mintaqamizda milliy masalani hal qilish borasida ilgari surilgan turli-tuman nazariya va kontseptsiyalar jiddiy mushohada etilishi zarur. Xususan, Yevroсиyo, ba'zi Markaziy Osiyo respublikalari "Buyuk Turon",

<sup>15</sup> "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 19 may, PF-5046-son

“Yagona Turkiston” va boshqa shu kabi kontseptsiyalarni o’z milliy siyosatining fundamental asosi sifatida ilgari surayotgani sir emas<sup>16</sup>.

Bunday yondashuvlar davlatimizning madaniy-ma’naviy infratuzilmani qayta qurish, mamlakat aqliy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarning maqsadi va milliy mustaqillik mafkurasiga qarama-qarshidir. Shu munosabat bilan millatlararo totuvlik, jamiyatdagi ijtimoiy va milliy guruhlar o’rtasida o’zaro ishonch va hurmatni mustahkamlashga ko’maklashuvchi partiyalar va harakatlar jamoat fondlari va uyushmalar, diniy konfessiyalarning tarbiyaviy sa’y-harakatlari yo’nalishining o’zgarishi bilan bog’liq barcha jarayonlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish zarurati tug’iladi. Shuningdek, millatlararo munosabatlarda tub joy aholisi bo’limgan kishilar migratsiyasi, milliy diasporalar bilan bog’liq ayrim muammolar, diniy murosasizlik, missionerlik va aqidaparastlik kabi omillarni ham nazardan qochirib bo’lmaydi. Bunda O’zbekiston milliy siyosatining hozirgi sharoitida etnik guruhlar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va takomillashtirish amaliyotining o’rni va rolini o’rganish muhim o’rin tutadi.

Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning hayotga izchil tatbiq etilishi globallashuv jarayonining jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’siri tobora kuchayib borayotgan bugungi murakkab, tahlikali vaziyatda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, I.A.Karimov haqli ravishda ta’kidlaganidek, “...tarixning murakkab hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o’z ahillagini va

<sup>16</sup> Musayev O. O’zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. –T.: “Istiqlol nuri”, 2016. –B.8.

birdamligini saqlab, o'z milliy manfaatlari yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va hushyorlikni yo'qotadigan bo'lsa, oxir-oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi shubhasiz”<sup>17</sup>.

O'zbekistan o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng nafaqat mamlakatga nom bergan o'zbek xalqi, balki shu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining ham millat sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, ko'p millatli diyorimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash va yanada mustahkamlashning muhim omili bulgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millatga mansub aholining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish uchun Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 1992 yil 13 yanvarda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari, shuningdek, jamoat tashkilotlari bilan bиргаликда millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish, milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va o'ziga xos an'ana, urf-odat va rasm-rusumlarni tiklash hamda rivojlantirishda ularga ko'maklashish deb belgilandi.

<sup>17</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008. –B. 51.

O'zbekiston televideniyesi orqali qator xorijiy tillardagi ko'rsatuvlarning muntazam ravishda namoyish qilinishi va maxsus radio eshittirishlarning turli tillarda efirga o'zatilayotgani ham diqqatga sazovor. Bugungi kunda, 12 (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, kirgiz, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshqird, koreys, uyg'ur) tillarida teleradio eshittirishlar efirga chiqmoqda. Bundan ko'rindaniki, O'zbekistonning millatlararo siyosati insoniylikka, demokratiyaga qarshi bo'lgan siyosatning har qanday ko'rinishlarini to'liq va mutlaq rad etishga asoslangan.

Ko'rrib turganidek, millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida O'zbekiston uziga xos tajriba orttirdi. Bunda faqat milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan ko'rilgan bu siyosat:

- ko'p millatlilikni yaratuvchilik qudratiga ega bo'lgan omil sifatida tan olish;
- fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar, tengligini ta'minlash;
- milliy mansubligidan qat'i nazar, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi teng huquqli ishtirokini kafolatlash;
- milliy til, urf-odat va an'analar hurmat qilinishini ta'minlash va ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;

- ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishini ta'minlash;
- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan milliy, irqiy, diniy adovat va nizoni targ'ib qiluvchi faoliyatga yo'l qo'ymaslik;
- millatlar va elatlar huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga doir xalqaro qoidalar ustuvorligini tan olish kabi tamoyillarga tayangan holda izchil amalga oshirilmoqda<sup>18</sup>.

Shuni unutmaslik kerakki, qayerda millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintakalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirishga g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siq tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya tuzog'iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm g'oyasi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko'ra ko'proq kulfat, ofat-balolar yog'dirib, oxir-oqibatda o'zi ham halokatga uchradi. Lekin hanuzgacha fashizm, shovinizm, irqchilik g'oyalarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g'oyasiga qarshi "salib yurishi" uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni xushyor torttirishi lozim.

---

<sup>18</sup> 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rGANISH bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. –T.: "Ma'naviyat", 2017. –B.362.

2017 yilda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligi keng nishonlandi. Mamlakatimizda milliy-madaniy markazlarni soni 140 dan ziyod bulib, ular yurtimizning jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, bu markazlar faoliyatida, millatidan qat'i nazar, barcha yurtdoshlarimiz qatnashishlari mumkin. Millatlararo munosabatlar yo'nalishidagi yana bir dolzarb masalalardan biri - aholining milliy tarkibiga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilishdir. Bu borada respublikamizda bugungi kunga kelib, 10 mingga yaqin maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qirg'iz tilida, 7 ta maktabda koreys tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilganini ta'kidlash kerak<sup>19</sup>.

O'zbekiston davlatining milliy siyosati ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va barqarorlikni ta'minlash, mustaqillik va suverenitetni mustahkamlash, xalqlar o'rtasida ishonch, hamkorlik, ma'naviy birligini saqlash, turfa shaklli, shu bilan birga, yaxlit madaniy makonni yuzaga keltirishda ta'sirchan, samarali mexanizmga aylanayotganidan dalolat beradi. Binobarin, bunday makonda har qanday etnik jamoa vakillari teng ijtimoiy-huquqiy maqomga ega bo'lishi ularning milliy an'ana va tarixiy qadriyatlarga tayangan holda

---

<sup>19</sup> 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. –T.: "Ma'naviyat", 2017. –B.360.

barqaror rivojlanishi, ma’naviy o’zligini saqlab qolishiga imkoniyat yaratadi.

O’zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning asosi bo’lgan millatlararo totuvlik va dinlararo bag’rikenglikni ta’minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor tamoyillaridan hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib borayotganligi, dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to’qnashuv va nizolar davom etayotganligi, bunday notinch keskinlik o’choqlari kamayish o’rniga ko’payib ketayotganligi tashvish bilan aytildi. Afsuski bunday mojarolar, birodarkushlik urushlarini asosiy harakatga keltiruvchi kuchlari soxta, o’ta mutassiblik, johillik botqog’iga tushib qolgan, siyosiylashgan va harbiylashgan diniy mafkuralar bilan qurollangan guruhlardir. Yanada achinarlisi, bunday jaholat botqog’iga ayrim yurtdoshlarimizni ham tushib qolganligidir. Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavfxatarlarga qarshi kurashish bo’yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimizning shartlari va vazifalari murojaatnomada uqtirildi. Avvalo, shu yo’nalishda shakllangan tizim samaradorligini yanada oshirishimiz, ayniqsa, diniy masalalar bilan bevosita shug’ullanadigan hokim o’rnbosarlari, mutasaddi tashkilotlar mas’uliyatini yanada kuchaytirishimiz zarur. Xususan, mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar, diniy-axloqiy masalalar bo’yicha

maslahatchilar, yoshlari, xotin-qizlar tashkilotlari faollari – barcha-barchamiz birgalikda ish olib borishimiz lozimligi ta'kidlandi.

Murojaatnomada diniy ekstremizm g'oyalari ta'siriga adashib tushib qolgan fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularni sog'lom hayotga qaytarish bo'yicha ishlarni yanada takomillashtirishimiz lozimligiga alohida to'xtab o'tildi. Axborot resurslari orqali tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalarning oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qilish organlari tarkibida alohida bo'linmalar tashkil etish zarur. Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o'rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz. Shu maqsadda mamlakatimizdagi diniy tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish choralari ishlab chiqilishi belgilanishi muhimligi alohida ta'kidlandi.

Dunyoning turli mintaqalarida milliy, diniy, etnik boshqa ijtimoy-iqtisodiyinizolar oqibatida kechayotgan xunrezliklar tufayli ko'plab begunoh insonlarning qoni to'kilayotganligidan saboq chiqarish juda muhim ekanligini angalashimiz zarur.

Xalqimizda, “bir kun janjal bo'lgan uydan qirq kun baraka ketadi” degan hikmat bor. Zero, yurtimizga yog'ilayotgan qut-barakaning asosiy sababi ham Ollohning bizga ko'rsatgan inoyatidir.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

- “Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 19 may, PF-5046-son.

2. Musayev O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. –T.: “Istiqlol nuri”, 2016. –B.8.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008. –B. 51.
4. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. –T.: “Ma'naviyat”, 2017. –B.362.
5. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. –T.: “Ma'naviyat”, 2017. –B.360.

## **YOSHLARDA AXBOROTNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Q.B.Nag'ashboyev**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU magistranti*

Axborot asrining 20-yiliga ham qadam ranjida etdik. XXI asrning shu o'tgan 19 yili juda qisqa tuyulgani bilan,bu davr modaynida juda kata olamshumul voqeа-hodisalar sodir bo'ldi,turli sohalarda yangi-yangi ko'z ko'rib, qulоq eshitmagan kashfiyotlar dunyo yuzini ko'rди. Hayot shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Bu shiddat, bu hayot sur'ati media va uning tarkibiy vositalarida yaqqol ko'rinmoqda. Ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan yaratilinayotgan yangi-yangi komputer moslamalari, telefon, televizor va noutbuklar kun-xafta sayin ommaga havola qilinmoqda. Yaratilganiga hali hech qancha vaqt bo'limgan telefon yoki komputer